O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING

QARORI

19.05.2021 yildagi PQ-5117-son

O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida

Amaldagi tahrir (lex.uz, 21.07.2025-y. holatiga). O‘z kuchini yo‘qotgan yoki tahrir qilingan bandlar tegishli izohlar bilan ko‘rsatilgan.

“Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” Davlat dasturiga muvofiq, xorijiy tillarni o‘rgatishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ta’lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadida:

(1-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PF-107-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan)

(2-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PF-107-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan)

3. Xorijiy tillarga o‘qitishning sifatini oshirish maqsadida:

(3-bandning “a” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan)

b) 2021-yil 1-sentabrdan boshlab xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi natijalarga erishgan maktablarni rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini ta’sis etilsin.

Bunda, sovrin uchun musobaqalar umumta’lim maktablari o‘rtasida quyidagi uch bosqichda tashkil etilgan holda:

birinchi bosqich — tuman va shaharlarda o‘tkazilib, g‘oliblar 100 mln so‘mgacha;

ikkinchi bosqich — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o‘tkazilib, g‘oliblar 250 mln so‘mgacha;

uchinchi bosqich — respublika miqyosida o‘tkazilib, g‘oliblar 500 mln so‘mgacha pul mablag‘lari bilan mukofotlansin.

Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi qarorni tasdiqlasin:

xorijiy tillarni o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar va ularga biriktiriladigan oliy ta’lim muassasalari ro‘yxati hamda ushbu maktablarni jihozlash dasturi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun maktablar orasida musobaqalarni o‘tkazish tartibi.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari qishloq hududlarida xorijiy tillarni o‘qitish faoliyatini tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga 50 mln so‘mgacha mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan bir martalik subsidiya ajratish amaliyotini yo‘lga qo‘ysin.

5. 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab:

a) ta’lim muassasalarining kamida S1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikatga ega xorijiy tillar (ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, pushtu, dari, urdu, hind) o‘qituvchilariga ularning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik 50 foiz miqdorida qo‘shimcha ustama haqi to‘lab borilsin.

Bunda, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining kamida S1 darajadagi xalqaro sertifikatni olish uchun imtihon topshirish bilan bog‘liq xarajatlari Davlat budjetidan pedagog kadrlar malakasini oshirish uchun ajratiladigan mablag‘lar, davlat oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining xarajatlari esa oliy ta’lim muassasalarining, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha davlat ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining xarajatlari — kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha davlat ta’lim muassasalarining o‘z mablag‘lari hisobidan qoplanishi belgilansin.

(5-band “a” kichik bandining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-sonli qarori tahririda)

b) umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarining kamida S1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega xorijiy tillar (ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, pushtu, dari, urdu, hind) o‘qituvchilari attestatsiya jarayonida malaka sinovi uchun maksimal ball bilan baholanib, xorijiy til moduli bo‘yicha sinovdan ozod etilsin.

Bunda, mazkur sertifikatni olish muqobil malaka oshirish shakli sifatida tan olinsin.

(5-bandning “b” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-241-sonli qarori tahririda)

v) umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarida xorijiy tilda mutaxassislik fanlaridan dars beradigan B2 va undan yuqori darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega o‘qituvchilariga qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan ustamalar tatbiq etilsin;

g) umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o‘qituvchilariga Davlat budjetidan zamonaviy adabiyot, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini sotib olishi uchun 1 mln so‘mdan mablag‘lar ajratilsin. Bunda, tavsiya etiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining ro‘yxati hamda ularni sotib olganlik to‘g‘risida hisobot shakli Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanadi.

(5-band “g” kichik bandining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyuldagi PF-114-sonli Farmoni tahririda)

Moliya vazirligi (T. Ishmetov) xorijiy tillar o‘qituvchilarining sertifikatni olish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplash va ustama to‘lash, shuningdek, ushbu o‘qituvchilar tomonidan adabiyot, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini sotib olish uchun 2021-yilda qo‘shimcha 100 mlrd so‘mgacha ajratilishi hamda 2022-yildan boshlab tegishli mablag‘larni Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutib borsin.

6. Xorijiy tillarni o‘qitish sohasiga malakali kadrlarni jalb qilish va soha mutaxassislarining salohiyatini oshirish maqsadida:

2021/2022 o‘quv yilida xorijiy tillarni o‘qitishga ixtisoslashtirilgan oliy ta’lim muassasalariga qabul parametrlari ikki baravarga, davlat granti asosida qabul ko‘rsatkichlari esa uch baravarga oshirilsin;

2022/2023 o‘quv yilidan boshlab, xorijiy tillarni o‘qitishga ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari tomonidan davlat attestatsiya imtihonlarini topshirish bilan bir qatorda ushbu ta’lim muassasalari hisobidan milliy yoki unga tenglashtirilgan boshqa yetakchi xalqaro baholash tizimlari orqali ularning bilimlari darajasini aniqlash amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin.

(6-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyuldagi PF-114-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan)

7. Davlat xizmatchilari tomonidan xorijiy tillarni o‘zlashtirish darajasini oshirish hamda davlat organlarini yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar bilan to‘ldirish maqsadida:

2021-yil 1-iyuldan boshlab davlat organlarida ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarini shartnoma asosida jalb qilib, haftada kamida bir marotaba xodimlarni xorijiy tilga o‘qitish amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin;

(O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrdagi PQ-455-sonli qaroriga asosan 7-band uchinchi xatboshisining chiqarilish sanasi 2025-yil 1-yanvar)

2022-yildan boshlab davlat organlariga ishga qabul qilish va yuqori lavozimga tayinlash uchun xorijiy tilni bilish talabgorga qo‘yiladigan majburiy malakaviy ko‘nikma sifatida belgilansin;

davlat organlarining rahbarlari o‘rinbosarlaridan biriga xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish, shu jumladan Agentlik bilan hamkorlik qilish vazifalari yuklatilsin.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N. Xusanov) Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (O. Xasanov), Agentlik, Adliya vazirligi (R. Davletov) va Moliya vazirligi (T. Ishmetov) bilan birgalikda bir oy muddatda davlat organlarida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish bo‘yicha qaror loyihasini kiritsin.

8. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (A. Toshqulov), Agentlik va Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov) ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o‘zgartish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

9. Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish bo‘yicha ishlarni samarali tashkillashtirish maqsadida:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari — 2021-yil 1-iyulga qadar Agentlik bilan birgalikda joriy yil ikkinchi yarmi uchun mo‘ljallangan hududlarda xorijiy tillarni o‘rgatishni ommalashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritalari” ishlab chiqsin, keyinchalik esa har yili 15-yanvarga qadar bunday “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqib, tasdiqlasin;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari Kengashlari — har yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish bo‘yicha tegishli hududda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan hisobotini eshitib borsin;

(9-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi PF-28-sonli Farmoni tahririda)

Vazirlar Mahkamasi (B. Musayev) — har yarim yilda ushbu qarorda nazarda tutilgan vazifalar bajarilishini Hukumat majlislarida muhokama qilib borsin;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi A.A. Abduvaxitov — ushbu qarorda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va to‘liq ijro etilishini nazorat qilsin.

Toshkent sh.,
2021-yil 19-may,
PQ-5117-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Sh. MIRZIYOYEV

(1-, 2- va 3-ilovalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PF-107-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan)

Manba: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz/docs/-5426736). Tahrirlar: 20.05.2021, 15.04.2022, 12.05.2022, 04.07.2023, 06.02.2024, 25.06.2024, 30.12.2024, 21.07.2025.